DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-oje-05-03-17 Pages: 125-131

Oriental Journal of Education



RENDERING HISTORICALLY AND CULTURALLY SPECIFIC VOCABULARY IN TRANSLATION (BASED ON THE TRANSLATIONS OF ABDULLA QAHHOR'S SHORT STORIES)

Barno Mirsharipova
1st-year PhD Student
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: minyo1691@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: translation, historical-national realities, equivalent, transliteration, explanatory translation, literary translation, historical authenticity, translation methods.

Received: 26.04.25
Accepted: 28.04.25
Published: 01.05.25

Abstract: This article analyzes the representation of historical and national-specific terms in translation and the challenges faced by translators. It highlights that translating historical and national realities is a complex process that requires preserving the original meaning of words belonging to a specific era. Additionally, the importance of the translator's correct approach to the concepts of historicity and national identity is emphasized.

Furthermore, the article pays special attention to the translation of measurement units, currency units, and household items, emphasizing that their accurate translation is crucial for conveying historical authenticity to the reader. The views of translation theory scholars are cited, stressing the need for a careful approach when translating historical and national realities and the importance of using footnotes.

TARJIMADA TARIXIY-MILLIY O'ZIGA XOS SO'ZLARNING IFODALANISHI (ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI TARJIMASI ASOSIDA)

Barno Mirsharipova
1-kurs tayanch doktorant
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: minyo1691@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tarjima, tarixiy-milliy realiyalar, ekvivalent, transliteratsiya, izohli tarjima, badiiy tarjima, tarixiy haqiqat, tarjimon

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy-milliy o'ziga xos so'zlarning tarjimada ifodalanishi va tarjimon duch keladigan

usullari.

qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Tarixiy va milliy realiyalar tarjimasi muayyan davrga mansub bo‘lgan so‘zlarning asl mazmunini yo‘qotmasdan yetkazish bilan bog‘liq murakkab jarayon ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada tarjimonning tarixiy va milliylik tushunchalariga to‘g‘ri yondashishi muhimligi qayd etiladi.

Maqolada, shuningdek, o‘lchov birliklari, pul birligi va maishiy buyumlarning tarjimada ifodalanishiga alohida e’tibor qaratilib, ularning to‘g‘ri tarjima qilinishi kitobxon uchun tarixiy haqiqatni to‘g‘ri yetkazishdagi muhim omil ekanligi yoritiladi. Tarjima nazariyasi bo‘yicha olimlarning fikrlari keltirilib, tarixiy-milliy realiyalarni tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish va matn osti izohlaridan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi.

ПЕРЕДАЧА ИСТОРИКО-НАЦИОНАЛЬНО СПЕЦИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДОВ РАССКАЗОВ АБДУЛЛЫ КАХХАРА)

Барно Миршарипова
Базовый докторант 1-курса
Ташкентского государственного университета востоковедения
Ташкент, Узбекистан
E-mail: minyo1691@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: перевод, историко-национальные реалии, эквивалент, транслитерация, пояснительный перевод, художественный перевод, историческая достоверность, переводческие методы.

Аннотация. В данной статье анализируется передача историко-национальных реалий в переводе, а также сложности, с которыми сталкивается переводчик. Подчеркивается, что перевод исторических и национальных реалий представляет собой сложный процесс, связанный с сохранением исходного значения слов, принадлежащих определённой эпохе. Также отмечается важность правильного подхода переводчика к понятиям историчности и национальной идентичности.

Кроме того, в статье особое внимание уделяется передаче в переводе единиц измерения, денежных единиц и бытовых предметов, поскольку их корректный перевод играет важную роль в донесении исторической достоверности до читателя. Приводятся мнения исследователей в области теории перевода, подчёркивается необходимость осторожного подхода к передаче историко-национальных реалий и использование сносок в тексте.

Kirish. Odatda tarixiy-milliy realiyalarning tarjimasi alohida murakkablik, qiyinchilik tug‘diradi. Tarixiy-milliy realiyalar haqida leksikaning maxsus o‘ziga xos guruhi haqida gapirilganidek, gapirilmaydi. Aksariyat hollarda realiyalarni u yoki bu davrga tarixiy jihatdan mansubligi haqida gap ketadi. Bunda realiyalarning predmet mazmuni yo‘qolib qolmasligi lozim, bu mazmun predmet tasnifining muvofiq bosqichlari bilan bog‘laydi.

Asosiy qism. Tarixiy-milliy xos so‘zlarda tarixiylik va milliylik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu tushunchalarning birini tarjimada noto‘g‘ri aks ettirilishi, o‘z navbatida ikkinchisining ham buzilishiga olib keladi. Demak, tarjimon oldida murakkab masalalardan biri tarjimada milliylikni qayta aks ettirishdir.

Tarixiy realiyalarning tarjimasi bu aslida mazkur so‘zlarning tarixiy bo‘yoqligini, ularning moddiy mazmuni hamda boshqa turiga nisbatan qo‘shimcha tarzda yetkazib berilishidan iborat.

Ko‘plab realiyalar tarixiy bo‘lib qolgan va hozirda ham bo‘lib qolmoqda, masalan, tarixiy bo‘yoqqa ega realiyalar aksariyat hollarda harbiy realiyalar orasida uchraydi. Turli, xilma-xil obyektlarni belgilab beruvchi so‘zlar bu realiyalar, yoxud atama, termin. Tarixiy realiyalarni tarjimon qadimgi mualliflarda shartli ravishda arxaik asarlarda ham uchratadi, bundan tashqari zamonaviy yozuvchilar asarlarida ham bular uchraydi, ammo bu yozuvchilar uzoq yoki yaqin o‘tmishni tasvirlab beradilar. U va bu mualliflar o‘rtasidagi farqlar ulardagi realiyalardir. Muallif hamda kitoblar o‘rtasidagi farqlar ulardagi realiyalarni yetkazib berishda ham turli yondashuvni talab qiladi.

Aniqki, tarixiy realiyalarni tarjima qilishda tarjimon o‘z arsenaliga “lingvistik qurol”ning ko‘plab turlarini kiritishi mumkin. Bunda biz transkripsiya, tarjima hamda o‘z tilining eskirgan so‘zlaridan foydalanishini nazarda tutamiz.

Quyida biz Abdulla Qahhor hikoyalarida keltirilgan ba’zi tarixiy-milliy o‘ziga xos so‘zlarning koreys tili tarjimasida berilishini ko‘rib o‘tamiz.

Faxriddin bozordan, otasi tayinlaganicha, ikkita shirmoy non, *yarim qadoq* pista oldi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:16]

파흐르든은 아버지 말대로 우선 시장에 들러서 따뜻한 빵 2 개랑 땅콩 **500 그램을** 샀다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:21]

Bu yerda milliy xos so‘z sifatida yarim qadoq so‘zi kelgan. Koreys tiliga tarjima qilinganda mazmunan biroz to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lsada, izohli lug‘atga murojaat qilganimizda buning aksini ko‘rishimiz mumkin.

Qadoq – 400 grammcha keladigan og‘irlik o‘lchovi. *Bir qadoq choy. – Afandi ishonmay, mushugini tortib ko‘rsa, to‘rt qadoq chiqibdi.* “Latifalar”. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, 1981:534]

Koreys tilidagi tarjimada berilganda “**500 그램**” (500 gramm) deb tarjima qilingan. Agar 1qadoq 400 grammcha keladigan bo‘lsa, yarim qadoq 200 grammga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari koreys xalqida ham “qadoq” so‘ziga muqobil o‘lchov birligi ham bor.

“한국에서 법적으로 'kg, g, m^2'이 사용되지만 '근'과 '평'이라는 단위도 사용됩니다. '근'은 보통 고기나 채소, 과일의 무게를 잴 때 많이 사용되는데, 고기 한 근은 600g 이며 채소 한 근은 400g 이 됩니다. 그리고 '평'이라는 단위도 한국에서 많이 사용됩니다. 집을 구할 때 '평'을 많이 사용하기도 하는데 한 평은 3.3m^2 입니다.” [송영중. 한국어 표준 교재, 2012:44]

Tarjimasi: “Koreyada qonuniy ravishda ‘kg, g, m^2’ kabi o‘lchov birliklaridan foydalanilsada, ‘kin’ va ‘pyong‘ deb nomlanuvchi o‘lchov bilrliklaridan ham foydalanishadi. ‘Kin’ odatda go‘sht yoki sabzavot, mevalarning og‘irligini o‘lchayotganda ko‘p ishlatilib, 1 kin go‘sht 600g.ga, 1 kin sabzavot 400g.ga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ‘pyong‘ o‘lchov birligi ham ko‘p ishlatiladi. Uyning o‘lchamini o‘lchayotganda ko‘p ishlatilib, 1 pyong 3.3m^{2}ga teng.”

Tarjimada qadoq so‘zi o‘rniga uning muqobil varianti “kin” so‘zi koreys xalqida bor bo‘lsa uni qadoqqa almashtirish biroz noto‘g‘ri sanaladi. Buning sababi bu ikkala so‘z ham tarixiy so‘z hisoblanib, har biri ma’lum xalqqa tegishli hisoblanadi. Shuning uchun bu so‘zni matn ostiga olib, izoh berilsa yaxshi bo‘lar edi.

“Muayyan bir xalq hayotidagi o‘lchov birliklarini boshqasi bilan almashtirishda uni asarning umumiy ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog‘lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o‘ylab ko‘rish kerak. Beparvolik bilan o‘sha o‘lchov birligi haqida zarur ma’lumotga ega bo‘lmay turib, uni o‘z tilidagi mos kelmaydign o‘lchov birligi orqali ifodalash asarning badiiy-estetik qimatiga putur yetkazadi, kitobxonda voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchsizlik uyg‘otadi”. [Исоқова, 2004:90]

Bemor kundan-kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. “Ko‘nglida armon bo‘lmasin” deb “chilyosin” ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarni ulgurji oladigan baqqoldan *yigirma tanga* qarz ko‘tardi. “Chilyosin”dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:24]

환자는 며칠 동안 죽을 것처럼 나빠졌다. '마음에 희망이 없기 때문에' '칠려슨'을 했다. 서드벌드는 그가 만든 바구니를 사주던 도매상에게 **20 딴가**의 빚을 얻었다. 칠려슨으로 환자가 건강해진 듯 보였다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:27]

Bu yerda pul birligi tanga so‘zi ishlatilgan. Koreyscha tarjimasida bu so‘z transliteratsiya usulida berilib, izohi matn ostida keltirilgan. 딴가: 숨보다 작은 화폐 단위 – tarjimasi: tanga: so‘mga qaraganda kichik pul birligi

Tanga – Buxoro xonligida 15 tiyinga, Qo‘qon xonligida 20 tiyinga teng bo‘lgan kumush pul. *Bir tanga (yigirma tiyin) yarim tanga (o‘n tiyin).* [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, 1981:117]

Izohli lug‘atdagi izoh bilan koreyscha tarjimadagi izoh bir-biriga mos kelgan. Tarjima to‘g‘ri berilgan.

Burungi zamonda bitta odam, mening bilishimcha, juda nari borsa *uch yarim pud* paxta terar edi, hozir *yigirma besh pudga* yetkazib terar emish. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:31]

옛날에는 한 사람이 **삼 붇**의 목화를 땄지만 지금은 **이십오 붇**을 수확하고 있어. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:38]

Bu yerda tarixiy oʻlchov birligi pud ishlatilgan. Oʻlchov birliklari haqida soʻz ketar ekan, keling oʻlchov birliklarining tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib oʻtamiz. Har bir oʻlchov birligi oʻzining uzoq tarixiga ega. Oʻlchov birliklari mavjud boʻlmagan davrlarda odamlar oʻz ehtiyojlaridan kelib chiqib, biror narsaning miqdorini oʻlchashda ulardan foydalanganlar. Ilgari inson tana a'zolari ham oʻlchov vositasi sifatida qoʻllanilgan. Bizga yetib kelgan yozma yodgorliklarda ular oʻz ifodasini topib, turli davrlarda har xil yuritilgan. Asosiysi, bu oʻlchovlarni hamma ham ishlata olishini hisobga olgan holda joriy etishgan. Masalan, ularni ishlatish uchun barmoq, qoʻl, qadam, koʻz, quloq, boʻgʻin, chaqirim, qoʻsh, tegirmon, moʻndi, tirsak, tosh va boshqa narsalar asos qilib olingan.

Pud – metrik oʻlchovlar sistemasi qabul qilinganiga qadar qoʻllangan, 16 kilogrammga teng ogʻirlik oʻlchov birligi. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, 1981:606]

Tarjima asarda bu soʻz matn ostiga tushurib quyidagicha tarjima qilingan:

붇: 목화의 양을 다는 단위 – pud: paxtaning ogʻirligini oʻlchaydigan ogʻirlik oʻlchov birligi. Tarjimon tomonidan toʻgʻri tarjima qilingan.

Chex olimi Irji Leviy oʻlchov birliklarining oʻgirmasi xususida fikr yuritib, jumladan, shunday deydi: "……arshin,stop,dyum,pint,gallon va shu kabilar faqat kolorit uchun xizmat qilsa hamda tarjima kitobxonida aniq moddiy tasavvur uygʻotmasa, tasvir qilingan narsaning haqiqiy oʻlchamlari kitobxon koʻz oldida gavdalanmaydi. Bu borada barcha birliklarni qabul qilgan metrik sistemaga, ya'ni metr va kilogrammlarga oʻtkazib tarjima qilish mumkin, faqat bunda muayyan uzunlik yoki ogʻirlik asar uchun koloritdan koʻra koʻproq ahamiyatga ega boʻlishi lozim". [Левый, 1974:134]

Xotini Mukarram hovlida *samovar*ga suv quyar edi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:70]

그의 아내 무가르람은 마당에서 **차 주전자**에 물을 붓고 있었다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:73]

Mukarram *samovar*ni koʻtarib kirdi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:71]

그때 부가르람이 **주전자**를 들고 들어왔다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:75]

Tagʻin yolgʻon gapirasanmi? Bundan keyin yolgʻon gapiradigan boʻlsang, bilib qoʻy, men oyingga oʻxshab ogʻrimaydigan qilib urmayman-a!.. Shu yolgʻon gapingdan keyin ruschadan "yaxshi" olganingga ham ishonmayman. Qani, xoʻsh, masalan, choynakning qopqogʻini ruscha nima deydi? *Samovar*ning joʻmragini nima deydi? [A.Qahhor hikoyalari, 2015:161]

– 또다시 거짓말 할 거야? 다시 한번 거짓말을 하면, 나는 어머니처럼 살살 때리지는 않을 거야! 니가 거짓말 한 것을 들으니 러시아어에서 '우'를 받았다는 것도 믿을 수가 없다. 자,

대답해봐, 주전자의 뚜껑과 **사머바르**의 꼭지를 러시아어로 뭐라고 하지? [A.Qahhor hikoyalari, 2015:165]

Bu gaplarning hammasida samovar so‘zi berilgan. Koreyscha tarjimasida bu so‘z har uch gapda uch xil tarjima qilingan. Avvalo izohli lug‘atda murojaat qilamiz.

Samovar – choy qaynatish uchun belgilangan, o‘txonali ro‘zg‘or buyumi. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, 1981:17]

Birinchi gapda **차 주전자 [**한 러 사전, 2004:590**]** choy qaynatadigan choynak degan so‘z birikmasi bilan berilgan bo‘lsa, ikkinchi gapda **주전자** choynak so‘zi bilan berilgan. Sababi bu ikki gap bir hikoyadan, ya’ni “Adabiyot muallimi”dan olingan bo‘lib, birinchi gapda to‘liq izoh bilan berilgan bo‘lsa, ikkinchi gapda shunchaki choynak deb berilgan. Oldingi joyda buni izohlab ketganligi sababli choynak deb berib o‘tgan.

Uchinchi gapda esa aynan milliy xos sifatida urg‘u berilganligi sababli, transliteratsiya usuli orqali berib, matn ostida izohini berib o‘tgan.

우즈베키스탄에서 찻물을 끓일 때 사용하는 조금 큰 물통인데 꼭지가 붙어 있어서 물을 따를 수 있게 되어 있다. 이 꼭지는 러시아어로 무엇이라고 말하는지 아는 사람이 별로 없다.

Tarjimasi: O‘zbekistonda choy uchun suv qaynatishda foydalaniladigan biroz katta suv idishdir, jo‘mragi bo‘lib, suv quyish mumkin. Bu jo‘mragini rus tilida nimaligin biladigan odam umuman yo‘q.

Tarjimon avvalo konteksdan kelib chiqqan holda milliy xos so‘zlarni tarjima qilish kerak. Bu uchchala gapda turlicha tarjima qilingan bo‘lsa-da asarda bu so‘zlar to‘g‘ri tarjimaga mos muqobili berilgan.

“Tarjima qilayotgan birlikning ma’nosini bir marotaba anglatib ketgan tarjimon keyinchalik uni izohsiz shundayligicha qo‘llashi mumkin”. [Комиссаров, 1990:150]

Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig‘ilib, *sandal* atrofida o‘tirishar edi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:78]

올림벡이라는 관리의 여덟 부인 중 나이가 가장 많은 노디르모흐베김 방에는 **탁자 밑에 화로를 놓고** 그 주변에 부인들이 모여 앉아 있었다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:86]

Nodirmohbegim *sandal* ichidan oyog‘ini uzatib, Unsinning boldirini chimchiladi, ko‘zi bilan “xayriyat, tushunmadi, bas, gapirma” deb ishora qildi. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:80]

노디르모흐베김은 **탁자** 밑으로 발을 뻗어 운슨의 정강이를 치며 ‘다행히 이해하지 못했으니, 더는 말하지 마’라는 뜻으로 눈짓을 보냈다. [A.Qahhor hikoyalari, 2015:90]

Ushbu ikkala gapda *sandal* so‘zi qo‘llanilgan. Ammo tarjimada ikki xil tarzda ifodalangan. Bizga ma’lumki *sandal xonaning chekkaroq yeriga qurilgan chuqurcha, unga qo‘yiladigan pastak kursi va ustiga yopiladigan ko‘rpa,mahalliy isitish qurilmasidir.(qish sovug‘ida sandal oyoq-qo‘l*

isitish uchun xizmat qiladi, ayni paytda undan yemak stoli sifati foydalaniladi). [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, 1981:18]

Tarjimada birinchi gapda sandal so‘zi tasviriy usul orqali **탁자 밑에 화로를 놓다** ya’ni pastak kursi tagiga olov yoqib atrofida o‘tirmoq deb tarjima qilingan. Ikkinchi gapda esa sandal shunchaki **탁자 [**한 러 사전, 2004:678**]** ya’ni stol ma’nosini berib o‘tgan.

Xulosa. Tarjimonning muhim bosh vazifalaridan biri original, ya’ni asl nusxa mazmunini maksimal darajada, to‘liq yetkazib berishdan iborat. Asl, original matn tili hamda tarjima tili tizimidagi farqlar hamda mazkur tillardagi matnlarni yaratish xususiyatlardagi farqlar har bir tilda mavjuddir va bular turli darajada asl nusxa mazmunini tarjima qilishda to‘liq saqlanish imkoniyatini turli darajada cheklashi mumkin. Tarjimonning vazifasi original matnda mavjud bo‘lgan axborotni to‘liqroq olish, buning uchun u ham fon umumiy bilimlarga ega bo‘lishi lozim, ya’ni bunda tarjimon dastlabki til sohiblari ega bo‘lgan umumiy fon bilimlariga ega bo‘lishi lozim. Shuning uchun tarjimon vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishi dastlabki tilda gapirayotgan xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatlari, zamonaviy hayot va boshqa realiyalari bilan hamma tomonlama batafsil tanish bo‘lishi talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, to‘liq, to‘laqonli, muvofiq tarjimaga qo‘yiladigan asosiy vazifa tarjimonni asar tarjima qilinayotgan til mamlakatining realiya hamda hayot va faoliyatidagi muayyan shart-sharoitlarini bilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor hikoyalari 압둘라 카허르 단편소설집. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2015.

2. Исоқова Ш. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликни акс эттирилиши. (Ойбекнинг “Навоий” романининг французча таржимаси мисолида): Ф. ф. н.дисс... – Тошкент: ЎзМУ, 2004.

3. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). –М.: Высшая школа, 1990.

4. Левый.И. Искуство перевода. – М.: Прогресс. 1974.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. / С.Ф Акобиров, Т.А. Алиқулов, З.М Маъруфов ва бош. М. Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили, 1981.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. / С.Ф Акобиров, Т.А. Алиқулов, З.М Маъруфов ва бош. М. Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили, 1981.

7. 송영중. 한국어 표준 교재. – 서울, 2012.

8. 한 러 사전 корейско-русский словарь. – 러시아어문학사, 2004.